

**ORKESTR IJROSI UCHUN ASARLAR TANLASH VA ULARNI O'RGATISH  
JARAYONLARINI LOYIHALASH**

**Ruziyev Davron Yuldashevich**

Buxoro davlat universiteti “Musiqa ijrochiligi va madaniyat” kafedrasini professori v.b., p.f.n.

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada o'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrosi uchun asarlar tanlash, musqa asarlarni o'rgatish jarayonini loyihalash tadqiq etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *orkestr, repertuar, loyihalash, bosqich, ijro.*

**Аннотация:** в данной статье исследуется подбор произведений для исполнения оркестром узбекских народных инструментов, проектирование процесса разучивания музыкальных произведений.

**Ключевые слова:** *оркестр, репертуар, проектирование, этап, исполнение.*

**Annotation:** this article examines the selection of works for the performance of the orchestra of Uzbek folk instruments, the design of the process of learning musical works.

**Key words:** *orchestra, repertoire, design, stage, performance.*

"Orkestr" fani Oliy ta'lif cholg'u ijrochiligi yo'naliishi bo'yicha mutaxassisni taylorlashda o'qitiladigan fanlar orasida markaziy o'rinnidan birini egallaydi. "Orkestr" fani bu'lajak mutaxassisning kasbiy mahoratini shakllantiradi, faoliyatni boshqarishda amaliy ko'nikmalarni hosil qiladi, shuningdek, ijobiylari didni tarbiyalaydi, tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatini, mustaqil fikrlash va ishslash qobiliyatini rivojlantiradi.

Orkestr faoliyatini tashkil etish - ijodiy masaladir. Har bir rahbar ish jarayonida oldindan aytib bo'lmaydigan turli o'quv-uslubiy, tshkiliy ishlar bo'yicha kutilmagan hodisalar, qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunga misol - ijrojilarning xarakteridagi o'zgarishlar, musiqa asbobida chalish malakalarining har doim ham bir me'yorda bo'lib turmasligi va boshqalar. Shunga ko'ra aytish mumkinki, ta'larning ijodiy va tarbiyaviy muvaffaqiyati o'qituvchi(dirijyor)ning tayyorgarligi va tashkilotchiligidagi, orkestr bilan ishslash qobiliyatiga bog'liq.

"Orkestr" so'zi yunoncha bo'lib, Raqs uchun maydon ma'nosini bildiradi. Qadimgi Yunonistonda bu atama tomoshabin va sahnaning parda oldidagi qismi, bo'shliqni anglatgan. O'sha joyni hozirgi teatrda orkestr egallagan. Orkestr bu - yagona tuzulma, lekin u bir xillikdan uzoqroq bo'lib funksiyalar tizimidan iborat.

Boshqa musiqiy ijro turlari singari, orkestr ijrosi nisbatan mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatdir. Shunga ko'ra orkestrning ijodiy tomoni badiiy shaklda namoyon bo'ladi. U musiqiy g'oyani, tovushlar vositasida ifodalanadigan badiiy obrazlarni jonli tovushlarda talqin qiladi. Ijrochilarning ta'siri tinglovchiga tovush yordamida, uning o'zgarishlaridan foydalangan holda bo'ladi. Bu borada tempo-ritmik, agogik, membr, dinamik, artikulyar og'ishlar, tovush chiqarishning turli usullari vosita sifatida tinglovchiga ta'sir etadi.

**Orkestr ijrosi uchun asarlar tanlash** muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Repertuar orkestrning ijodiy salohiyatini oshirishning eng muhim vositasidir. Muayyan asarni tanlashda dirijyor uning badiiy qimmatini, asarni jamoa tomonidan o'zlashtirish imkoniyatini,

shuningdek, orkestrchilarning tanlangan asar ustida ishlashga qiziqishini hisobga olishi kerak. Chunki orkestrchilarning asar ijrosiga qiziqishi uning tez o'zlashtirilishida muhim omil hisoblanadi.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun to'g'ri repertuarni tanlash oson ish emas. Har bir jamoa o'zining texnik va badiiy imkoniyatlariga ega, unga ko'ra dirijyor asarlarni tanlashi kerak. Jamoa o'z repertuarida turli auditoriyada, imtihonda, turli tadbirdorda namoyish etilishi mumkin bo'lgan musiqa asarlariga ega bo'lisi kerak. Har bir orkestr rahbari o'z repertuarini tanlaydi, u doimiy ravishda kengaytirilib, yangi, qayta ishlangan va orkestr ijrosi uchun moslashtirilgan asarlar bilan to'ldirib boradi.

Repertuar tanlashda har bir asarning g'oyaviy va badiiy-estetik yo'nalishi va qimmatini hisobga olish zarur. Asar ushbu orkestrning badiiy va texnik ijrosi imkoniyatiga mos kelishi kerak. Asar orkestrchilar va rahbarning o'zi uchun qiziqarli bo'lisi ijodiy faoliyat saqmaradorligini oshiradi. O'rganilayotgan har bir asar orkestr ijrochilarining texnik mahorati va badiiy didini yuksaltirishga, sozandalar ijrochilik mahoratini mustahkamlash va rivojlantirishga, estetik didni rivojlantirishga, musiqani tushunishga, ma'naviy dunyosi va axloqiy madaniyatini boyitishga hissa qo'shishi, shuningdek, ijro etilayotgan asar orkestr sozandalarida xalq cholg'u musiqasiga, kontsert amaliyotiga qiziqishni rivojlantirish kerak.

Konsert repertuari tarbiyaviy talablar bo'yicha ham bir qator shartlarga javob berishi kerak. Repertuar yordami bilan nafaqat o'quv va ijodiy vazifalar, balki badiiy va ijro vazifalari ham hal qilinadi. Repertuarda doimo yangilik elementi bo'lisi, pedagogik jihatdan samarali bo'lib qolishi uchun unga zamonaviy kompozitorlar tomonidan yozilgan yangi asarlarni kiritishga harakat qilish kerak. Repertuarga qiziqish mahalliy kompozitorlar tomonidan yozilgan pyesalar tufayli yuzaga keladi. Bunday asarlarni yaratish uchun material sifatida ko'pincha mahalliy xalq og'zaki ijodi, qo'shiqlar, kuylar, xalq qo'shiqlari, raqslari, ma'lum bir hududda sodir bo'lgan tarixiy voqealar hisoblanadi.

Asarlarni tanlash ba'zida aniq o'quv vazifalariga (tanlovga, festivalga tayyorgarlik va h.k.) ham bog'liq. Agar o'rganilayotgan asarlarning murakkabligi asta-sekin va izchil o'sib borsa, demak, bu oxir-oqibat jamoaning ijro darajasining sezilarli o'sishiga olib keladi.

**Musqiy ta'limda asarlarni o'rgatish jarayonini loyihalash.** Loyihalash musqiy ta'limda asarlarni o'rgatish jarayonini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

Loyihalash o'qituvchini orkestr faolitida musiqa asarlarini talabalarga o'rgatishi va talabalar tomonidan ularni o'zlashtirib olinishiga oid musiqiy faoliyatlar mazmunini hamda vositalarini hal etishga erishtiradi.

Orkestr faoliyatida musiqa asarlarini o'rgatish jarayonini loyihalash -o'qituvchining kasbiy faoliyatining ko'rinishi bo'lib, ta'lim jarayonining texnologik tuzilmasi, uning natijasini ta'minlovchi metod va vositalar yig'indisi bilan tavsiflanadi.

Orkestrda musiqa asarlarini talabalarga o'rgatish jarayonini loyihalashda ta'lim jarayonini loyihalashning quyidagi qonuniyatlariga rioya qilish kerak:

- musiqa asarlarini o'rgatish jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar(texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiy-psixologik muhit)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlanishi;

- musiqa asarlarini o'rgatish vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanishi;

- loyihalash strategiyalari orkestr fani o'qituvchisining bilimi, mahorati va boshqa individual uslubiga muvofiq tanlanishi kerak. Shuningdek, asarlarni talabalarga o'rgatishning loyihalash sifati teskari aloqa (o'qituvchi va talaba o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni, barcha omillar samaradorligiga bog'liqligini unutmaslik kerak.

Orkestr faoliyatida talabalarga musiqa asarlarini ijro etishga o'rgatish jarayonining loyihasi quyidagi bosqichlarda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

**1-bosqich.** Bu bosqich - orkestr faoliyatida talabalarga musiqa asarlarini o'rgatish jarayonini loyihalashning dastlabki bosqichi bo'lib bunda orkestr fani mundarijasidan joy olgan musiqa asarlari yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish nazarda tutiladi. Shuningdek, musiqa asarlarining mazmun-mohiyati bilan tanishib chiqish, ularda ilgari surilgan badiiy-musiqiylar g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish hamda yaxlitlashdan iborat bo'ldi.

**2-bosqich.** Orkestrda ijro etiladigan musiqa asarlarining mazmun-mo'hiyati yuzasidan yagona, umumiylar maqsadni aniq belgilash, umumiylar maqsad doirasida asar jumlalari bo'yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlarni ham belgilash, asarlarni ifodali, jozibali ijro etishga oid ta'lim maqsadiga erishish yo'lida ijobiy hal etib borilishi lozim bo'lgan musiqiy-badiiy vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

**3-bosqich.** Bu bosqichda orkestrning ta'lim jarayoniga oid mazmunini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. Bu, o'z navbatida, orkestrda ijro etiladigan musiqa asarlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Bu bosqichda, shuningdek, asarlarni mazmun-mohiyatini talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan musiqiy-badiiy tushuncha, ko'nikma hamda ijroviy malakalarining hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Bosqichning samarasi: talabalar tomonidan orkestr asarlari bo'yicha ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va ijroviy malakalarining sakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

**4-bosqich.** Bu bosqich loyihalashning eng muhim bosqichidir. Bu jarayonda orkestr ijro etadigan musiqiy asarlarni talabalarga o'rgatish shakli, metod va vositalarini tanlash ishlari amalga oshiriladi. Aynan shakl, metod va vositalar yordamida asarlarni o'rgatish borasidagi nazariy bilimlar hamda amaliy ijro talabalarga beriladi va o'z navbatida talabalar ushbu bilimlarni qabul qilib oladilar. Orkestr ijrosi uchun rejalshtirilgan musiqa asarlarining mazmun-mohiyati, ijro etish qoidalari aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. Talabalarning asarlarni ijro etishga ijodiy yondashishi, o'zlarini erkin tutib cholg'u asboblarida chalishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi mashg'ulotlarning qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

**5-bosqich.** Bu bosqichda o'rganilayotgan musiqa asari yuzasidan ma'lum tushuncha, ko'nikma va ijro malakalarining talabalar tomonidan qancha vaqt oralig'ida o'zlashtirish mumkinligi aniqlanadi.

**6-bosqich.** Orkestr asarlarini to'g'ri, ifodali ijro etish bo'yicha qo'shimcha mashq (topshiriqlar tizimi) ishlab chiqiladi va ularning samaradorligiga alohida ahamiyat berish talabi mazkur bosqichning asosiy sharti hisoblanadi. Asarlarni to'g'ri, ifodali ijro etish bo'yicha qo'shimcha mashq (topshiriqlar tizimini) quyidagi guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiqlirdi:

1. Mashg'ulotlar jarayonida talabalar tomonidan hal etilishi lozim bo'lgan topshiriq va mashqlar: a) asardagi ifoda vositalarini to'g'ri anglash va tushunib olish; b) cholg'u asbobida tovushlarni balandlik jihatdan aniq, sof ijro etish, badiiy obrazni to'g'ri ifoda etish; v) cholg'u ijrochiligi texnikasiga oid mashqlardan unumli foydalanish; g) cholg'u asbobida milliy ohang, nola, qochirim-bezaklar ustida ishslash.

2. Mashg'ulotdan tashqari sharoitlarda bajarilishi ko'zda tutilgan mashqlar, topshiriqlar, uy vazifalari: a) asarni qaysi shakl, uslubga xosligi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar to'plash; b) asarni ritm-usulini his etib ijro etishni mashq qilish; v) asarni musiqiy-badiiy ijrosi va yaxlit holda ijro etishni mashq qilish; g) asarni qanday holat, vaziyatda ijro etilishi haqidagi ma'lumotlarni mustahkamlash. Talabalar e'tiboriga havola etilayotgan mashqlar, topshiriqlar, uy vazifalari bir-birini to'ldirishi, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlikda bo'lishi kerak.

**7-bosqich.** Bu bosqichida talabalarning umumiyligi faoliyatlarini nazorat qilish amalga oshiriladi. Jumladan, talabalar tomonidan orkestr ijro etadigan asarlarni o'rganish yuzasidan bilimlarni o'zlashtirilganligi, shuningdek, asarlarni ijro etish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalari aniqlanadi.

**8-bosqich.** So'nggi bosqich sifatida asarlarni o'rgatish bo'yicha yaratilgan loyihaning orkestr ta'limi jarayoniga tatbiq etilishi va uning yakuniy darajasi (samaradorligi)ni o'rganish bilan nihoyalanadi. Bu bosqichda musiqa asarlarini o'rgatish jarayonining umumiyligi ahvoli, nazariy va amaliy jihatdan erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning yuzaga kelish sabablari tahlil etiladi. Shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni navbatdagi dars(mashg'ulot)lar davomida bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi.

Ijro etiladigan asarni barcha ijrochilar o'ta ziyoraklik bilan chalishi va ansambl ijrosining umumiyligi sadolanishida o'z mahoratini to'liq namoyish etishga harakat qilishi kerak. O'qituvchi esa orkestrdagи barcha ijrochilarda ko'tarinkalik kayfiyatni hosil qilishi, ularni o'z kuchlariga ishontira olishi, asar ijrosi davomida o'zlarini dadil tutib har qanday his-hayajonni yo'q qilib, erikinlik bilan ijro etish orqali uning badiiy maqsadini tinglovchilarga yetkazishlariga harakat qilishlariga undashi kerak. Orkestr ijrochilarining o'qituvchining har bir ko'rsatmasining aniq va sifatli bajarishi ular o'rtasidagi o'zaro ishonchni, bir-birini tushunib asarning mazmun-mohiyatini, badiiy g'oyasini to'laqonli ifodalab berishni ta'minlaydi. Zero, hech bir narsa butun otkestr jamoasi samimiyligini, o'qituvchi ko'rsatmalarini o'ta e'tiborlik va ma'suliyat bilan bajarishini ta'minlay olmaydi. Kontsert (yoki boshqa shakldagi chiqishlar)da orkestr jamoasi asar ijrosini har tomonlama ifodali bo'lismiga, o'z ijrosini yanada ta'sirli chiqishiga harakat qiladi. Buning uchun, albatta, orkestr mashg'ulotlari davomida asar ijrosiga jiddiy yondashib, uning mukammal ijrosini ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchи tomonidan qaraganda, asar ijrosiga jiddiy yondashib, uning mukammal ijrosini ta'minlanishi o'qituvchi bilan ijrochilar orasida o'zaro ijodiy hamkorlikni vujudga keltiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduraximova F.R. Orkestr sinfi. - Toshkent. 2012.
- 2 Do'stov S. Cholg'u ijrochiligi va ansambl. - Buxoro "Durdon", 2019 -240 b.
3. Rahimov Sh. Cholg'ulashtirish va partitura o'qitish (O'quv qo'llanma). Toshkent. 2009.

4. Ruziyev D. Orkestr ijrochiligi (O'quv qo'llanma). - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 204 b.
5. Ro'ziyev D.Yu. Musiqiy ijrochilik mahorati. Pedagogik mahorat. 6-son, 2019. 260-263-b.
6. Ro'ziyev D.Yu. Orkestrda ijro etishning ayrim pedagogik va psixologik omillari. "Psixologiya" 2-son, 2020. 95-102-b.
7. Ro'ziyev D.Yu. Ansaml ijrochilarida obrazli musiqiy tafakkurni shakllantirish. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal: "Pedagogik mahorat" MS.,2021-yil. 11-15-b.
8. Ro'ziyev D.Yu. Milliy sozlarning tarixiy taraqqiyoti va ta'limg-tarbiyadagi roli. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal: "Pedagogik mahorat" №1. 2021-yil. 219-226-b.
9. Ro'ziyev D.Yu. Musiqa ta'limi texnologiyasining ba'zi masalalari. Pedagogik ta'limg. - Toshkent, 2007-№ 1. b. 57-58.
10. Рузиев Д.Ю. Некоторые психологические особенности развития игры на инструменте и подпевания //Академия. - 2020. - № 3 (54).
11. Ruziev D.Yu. Ways Of Working On Musical Compositions. The American Journal of Social Science and Education Innovations №1 Том 3 2021
12. Ruziev D.Yu. THE ROLE OF THE CONDUCTOR IN ORCHESTRAL PERFORMANCE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 24.02.2021
13. Ruziev D.Yu. ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНЫМ ПРОИЗВЕДЕНИЯМ В АНСАМБЛЕ. Наука, техника и образование 2-1 (77) 2021
14. Ruziev D.Yu. Musical and aesthetic education of the student collective musical-aesthetic education student's team. International Journal on Integrated Education. 01.02.2021
15. Ражабов, Д. З., & Ражабов, Т. И. (2018). Формирование и развитие узбекской народной лирики. In Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире (pp. 207-212).
16. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали. - 2021. - Т. 1. - №. 6. - С. 139-145.
17. Ражабов, Т. И. (2022). ХАҚ ҚҮШИҚЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРДА МИЛЛИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛАНТИРИШ ОМИЛИ. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали , 2(1), 364-368.
18. Норова Шоира Умрзаковна ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ УВАЖЕНИЯ К НАЦИОНАЛЬНЫМ ЦЕННОСТЯМ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ // Наука, техника и образование. 2021. №2-2 (77).
19. Norova Shaira Umurzoqovna. (2021). METHODS OF PERFORMANCE BY MUSICAL INSTRUMENTS. European ScholarJournal, 2(9), 55-56.
20. Norova Shaira Umirzakovna Ways To Improve Learning Efficiency Using Innovative Technologies Web of Scientist: International Scientific Research Journal. - 2021. - Т. 1. - №. 01. - С. 41-47.